
YAPONIYA ISHBILARMONLARIDAN IBORAT KATTA DELEGATSIYA – FARG'ONADA!

Bugun Yaponiyaning 20 dan ortiq turli sohalarda faoliyat olib boruvchi kompaniyalari rahbarlaridan iborat delegatsiya Farg'ona shahriga keldi.

Farg'ona xalqaro aeroportida mehmonlarni viloyat hokimining o'rinnbosari – viloyat Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i Iqboljon Ergashev va boshqa mas'ullar kutib oldilar.

Bugun Farg'ona shahridagi viloyat teatr-kontsert saroyida yaponiyalik ishbilarmonlar hamda farg'onalik tadbirkorlar ishtirokida biznes-uchrashuv va B2B muzokaralar bo'lib o'tadi. Shuningdek, mahalliy hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishadilar.

Farg'ona shahrida barpo etilayotgan Ekoshahar loyihasi amalga oshirilayotgan hududda yaponiyaliklar uchun ushbu shaharcha hamda tashkil etilayotgan kichik sanoat zonasini taqdimoti o'tkaziladi.



[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2021-10-30 20:09:43